



DISCOVERING BEAUTY IN THE MIND OF YOUNG PEOPLE THROUGH THE HARMONY OF MUSIC AND PHILOSOPHY

Laylo Tursunova

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences

Senior Lecturer at Fergana State University,

E-mail: l.e.tursunova@pf.fdu.uz

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Music, philosophy, aesthetic consciousness, beauty, young people, spiritual education, harmony, intuition, thinking.

Received: 02.09.25

Accepted: 03.09.25

Published: 04.09.25

Abstract: This article scientifically and theoretically analyzes the role of the harmony of music and philosophy in the formation of the concept of aesthetic taste and beauty in the minds of young people. The author highlights the problems of aesthetic consciousness, spiritual harmony and perception of beauty through the influence of music on the human soul through the senses and the penetration of philosophy into the process of perception through thinking. Practical suggestions are also given on the pedagogical effectiveness of using philosophical approaches in music lessons.

MUSIQA VA FALSAFA UYG'UNLIGI ORQALI YOSHLAR ONGINDA GO'ZALLIKNI KASHF QILISH

Laylo Tursunova

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: l.e.tursunova@pf.fdu.uz

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Musiqa, falsafa, estetik ong, go'zallik, yoshlar, ma'naviy tarbiya, uyg'unlik, sezgi, tafakkur.

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqa va falsafa uyg'unligining yoshlar ongidagi estetik did va go'zallik tushunchasini shakllantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Muallif musiqaning tuyg'ular orqali inson qalbiga ta'sir qilishi va falsafaning tafakkur orqali anglash jarayoniga kirib borishi orqali estetik ong, ma'naviy uyg'unlik va

go‘zallikni idrok etish muammolarini yoritadi. Shuningdek, musiqa darslarida falsafiy yondashuvlardan foydalanishning pedagogik samaradorligi haqida amaliy takliflar beriladi.

ОТКРЫТИЕ КРАСОТЫ В УМАХ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ ЧЕРЕЗ ГАРМОНИЮ МУЗЫКИ И ФИЛОСОФИИ

Лайло Турсунова

доктор философии (PhD) по философским наукам

старший преподаватель Ферганского государственного университета

Эл. почта: l.e.tursunova@pf.fdu.uz

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Музыка, философия, эстетическое сознание, красота, молодежь, духовное воспитание, гармония, интуиция, мышление.

Аннотация: В данной статье научно-теоретически анализируется роль гармонии музыки и философии в формировании в сознании молодежи понятия эстетического вкуса и красоты. Автор освещает проблемы эстетического сознания, духовной гармонии и восприятия красоты через воздействие музыки на человеческую душу через чувства и проникновение философии в процесс восприятия через мышление. Также даются практические предложения о педагогической эффективности использования философских подходов на уроках музыки.

Kirish

“Yoshlarimiz qalbida go‘zallikka intilish, ma’naviyat va madaniyatga muhabbat bo‘lsa, bizning jamiyatimizda yuksaklik hukm suradi”[1]. Zamonaviy jamiyatda inson ongi, qalbi va dunyoqarashini yuksak ma’naviy mezonlar asosida shakllantirish muhim vazifalardan biridir [2]. Zamonaviy jamiyatda yoshlarning ruhiy-ma’naviy dunyosini boyitish, ularda estetik va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish eng dolzarb masalalardan biridir. Bu yo‘lda eng samarali vositalardan biri – musiqa va falsafa uyg‘unligidir.

Ayniqsa, yosh avlodning go‘zallikni anglay olish, his eta olish va uni yaratishga intilish xususiyati – ularning estetik tafakkuri va ichki dunyosi bilan chambarchas bog‘liq. Bu borada musiqaning qudrati va falsafaning chuqur mazmuni bir-birini to‘ldiradi. Musiqa – yurak tilida so‘zlovchi san’at bo‘lsa, falsafa – tafakkur manbai sifatida inson ruhiy olamining ildizlariga kirib boradi. Musiqiy va falsafiy uyg‘unlik orqali yoshlar ongida go‘zallikni kashf etish jarayoni ilmiy-nazariy jihatdan yoritilib borayotganligi fikrimizning dalilidir.

Bunday yondashuvni qadimiy faylasuflar – Pifagor, Aristotel, Abu Nasr Forobiy kabi mutafakkirlar asarlarida uchratish mumkin. Ular musiqani faqat estetik zavq manbai emas, balki ruhiy poklanish, tafakkurni shakllantirish va koinot qonunlarini anglash vositasi sifatida talqin qilganlar.

1. Musiqa va falsafa – inson tafakkurining ikki qanotidir.

Musiqa insonga bevosita ta'sir etuvchi qudratli san'at turi bo'lib, uning tovushlar orqali ifodalangan go'zalligi ruhiyatda muvozanat, iroda va estetik tafakkurni uyg'otadi. Falsafa esa – insonning borliq, hayot va o'z “men”i haqidagi chuqur tafakkurining mahsuli.

Pifagor (mil. avv. VI asr) musiqani matematikaning bir shakli deb hisoblagan. Unga ko'ra, koinotdagi uyg'unlik musiqadagi uyg'unlik bilan bog'liq. Bu qarash “koinot musiqasi” (Musica universalis) deb nomlangan g'oyaga asos bo'lgan.

“Musiqa – bu sonlar uyg'unligining eshitiladigan shaklidir”[3].

Aristotel (mil. avv. IV asr) esa musiqaning axloqiy va tarbiyaviy ta'siriga urg'u bergan. Unga ko'ra, musiqa nafaqat hissiyotlarni uyg'otadi, balki ularni muvozanatga keltirib, ichki garmoniya yaratadi.

“Musiqa odamlarda o'ziga xos odatlarni shakllantiradi; u ruhni yo'naltiradi”[4].

Shunday qilib, qadimiy dunyo allomalari musiqani tafakkur bilan chambarchas bog'laydi. Bugungi yosh avlodni ruhiy kamolotga yetkazishda bu qarashlar nihoyatda dolzarbdir.

Go'zallikni anglash – estetik ongning uyg'onishishishi bilan chambarchas bog'liqdir. Yoshlar ongida go'zallikni anglash jarayoni musiqiy-estetik tarbiya va falsafiy tafakkur asosida shakllanadi. Musiqa orqali inson o'z his-tuyg'ularini ifoda etadi, ular orqali hayotdagi noziklik va go'zallikni anglaydi. Bu esa – ruhiy uyg'onishning boshlanishidir.

Abu Nasr Forobiy (873–950) “Musiqa ilmi” asarida musiqaning ruhiy tuyg'ular bilan bog'liqligini chuqur tahlil qilgan. U musiqani axloqiy tarbiya va jamiyat taraqqiyotining asosi deb hisoblagan: “Musiqa – nafaqat ko'ngilxushlik, balki ruhni komillikka yetaklaydigan vositadir”[5]

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Go'zallikni anglash – bu tafakkur bilan his-tuyg'u birlashgan nuqtadir. Bu jarayon aynan musiqa va falsafaning uyg'unligida yuzaga keladi. Masalan, birgina ohang vositasida inson qalbida yuksak orzular, ezgu niyatlar, ezgulik haqidagi tasavvurlar uyg'onadi. Falsafiy qarashlar esa bu his-tuyg'ularni tushunish va anglashga yo'l ochadi.

Musiqa va falsafa uyg'unligining amaliy natijalari - Zamonaviy ta'lim tizimida yoshlarning estetik didini shakllantirish, ruhiy-axloqiy yetuklikni qaror toptirishda bu ikki sohadan kompleks foydalanish lozim. Ayniqsa:

Ta'lim dasturlariga falsafiy-musiqiy yondashuvlarni joriy etish

Tarbiyaviy mashg'ulotlarda musiqa orqali hayotiy savollarni muhokama qilish

Yoshlar bilan ishlashda musiqiy-falsafiy tahlil va suhbat usullarini joriy etish

Ko'plab tajribalarda aniqlanishicha, musiqa darslarida falsafiy savollar muhokamasi o'quvchilarni chuqur fikrlashga, o'z hayoti va jamiyatdagi o'rnini anglashga undaydi. Bu yondashuv orqali ular san'atga nafaqat tinglovchi, balki tafakkur qiluvchi shaxs sifatida yondasha boshlaydi.

Shunday ekan, bugungi yoshlarni komil inson sifatida tarbiyalashda musiqa – yurak, falsafa – aql tarbiyasi sifatida birgalikda xizmat qilishi zarur. Qalbni ohang uyg'otadi, tafakkurni esa savollar tarbiyalaydi. Agar bu ikkalasi birlashsa – inson mukammallikka yaqinlashadi [6]

Musiqa va falsafa: ikki ilohiy qatlamning birligidir.

Musiqa – tuyg'ular, ruhiy holat va estetik idrokning ifodasi bo'lib, u insonni go'zallikka, samimiyatga, uyg'unlikka chorlaydi. Falsafa esa – insoniyat tafakkurining eng chuqur qatlamlarini o'rganuvchi fan bo'lib, go'zallikning mohiyati, ma'nosi va qadriyat sifatidagi o'rnini aniqlaydi. Ular uyg'unlashganda, nafaqat san'at, balki inson hayoti ham yuksak estetik mazmunga ega bo'ladi.

Bu ikki soha bir-biriga mutanosib holda yoshlarning ichki dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Musiqa orqali ular sezadi, his qiladi; falsafa orqali esa angelaydi, tahlil qiladi. Ana shu jarayon estetik ongning shakllanishiga olib keladi.

Yosh ongda go'zallikni kashf etish jarayoni yoshlar uchun go'zallik – bu faqat tashqi ko'rinish emas, balki ichki uyg'unlik, ma'naviyat, xulq va tuyg'ular muvozanatidir. Go'zallikni anglash esa o'rganiladigan, tarbiyalanadigan fazilatdir. Musiqa yosh ongda go'zallikka mehr uyg'otadi, uni sezishga o'rgatadi. Falsafa esa uni mohiyatan tushunishga yordam beradi. Misol uchun, o'zbek xalq kuylaridagi ohangdorlik, sadoqat, mehr va tabiat bilan uyg'unlik ruhiy go'zallikni uyg'otadi, falsafiy talqinlar esa bu tuyg'ularning ma'nosini ochib beradi.

Shunday qilib, bu ikki kuch birgalikda yosh ongida estetik sezgirlik, ichki uyg'unlik, mazmunli hayotga intilish, yaxshilikka ishonch kabi sifatlarni shakllantiradi.

Tarbiya va ta'lim tizimidagi imkoniyatlarning xozirgi kundagi o'zni o'z samarasini bermogda. Bu esa O'zbekistonda estetik tarbiya tizimi asta-sekin yangilanib, milliy qadriyatlar va san'at orqali yoshlar ongiga ta'sir qilish imkoniyatlari kengaymogda. Musiqa darslarida falsafiy mulohazalar asosida ohanglar mazmuni ochib berilishi, kuylarning ichki falsafasi tushuntirilishi yoshlar dunyoqarashiga chuqur ta'sir etadi. Shu sababli, musiqa va falsafani integratsiyalashgan holda o'qitish – kelajak avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashning muhim yo'lidir.

Muhokama

O'zbek xalq kuylarida mavjud bo'lgan hayotiy donolik, poklik, tabiatga yaqinlik falsafiy qarashlar bilan uyg'unlashgan. Masalan, maqom san'atida kuy va so'zlar orqali beriladigan estetik tasvir, tinglovchi ongini yuksaklikka olib chiqadi[7].

Tarbiya va ta'lim tizimidagi amaliy yondashuvlar ta'lim jarayonida musiqiy-falsafiy yondashuv quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi quyidagicha:

Musika darslarida kuy va qo'shiqlarning falsafiy mazmunini ochib berish.

Musika – bu nafaqat ohanglar yig'indisi, balki inson qalbining, ichki kechinmalarining, jamiyat tafakkurining yuksak ifodasidir. Har bir kuy va qo'shiqning o'ziga xos falsafasi, hayotiy g'oyasi mavjud. Musika darslarida kuy va qo'shiqlarning mohiyatini faqat ohang va ritm orqali emas, balki ularning ichki mazmuni, voqelikka munosabati, zamon, makon va shaxsiy hissiyotlar orqali ochib berish ta'lim-tarbiyaning muhim jihatidir. Masalan, "Tanovar", "Segoh", "Munojot" kabi maqomlarning chuqur falsafiy ildizlari bor [8]. Ular inson hayoti, muqaddaslik, tavba, ichki poklanish kabi mavzularni o'zida mujassam etadi. Shu kabi kuylar asosida o'quvchilarga hayotiy savollar berish, ular bilan bahs-munozara olib borish orqali ularning tafakkur doirasini kengaytirish mumkin. Qo'shiqlar orqali esa tarixiy shaxslar, xalq dardlari, umumbashariy qadriyatlar yoritiladi.

Shuning uchun musika darslarida kuy va qo'shiqlarning shunchaki tinglovchisi emas, balki ularning ichki mohiyatini anglaydigan, mushohada qiladigan yosh avlodni tarbiyalash dolzarb masaladir. Falsafiy yondashuv musiqani ma'naviy-ma'rifiy vositaga aylantiradi.

Kompozitorlar ijodida aks etgan g'oyaviy-estetik fikrlarni tahlil qilish

Har bir kompozitor o'z asarlari orqali jamiyatga murojaat qiladi. Ularning kuylarida nafaqat musiqiy obrazlar, balki davr ruhiyati, falsafiy qarashlar, inson va borliq haqidagi mulohazalar mujassam bo'ladi. Kompozitor ijodini chuqur o'rganish – bu o'sha davr tafakkuri, ijtimoiy-ruhiy holatini tahlil qilishdir.

Natijalar

Masalan, Mutal Burhonov, Maqsad Jovliyev, Mansur Toshmatov, Tolib Sodiqov kabi o'zbek kompozitorlari ijodida Vatanga sadoqat, tabiat go'zalligi, inson orzu-umidlari, baxt va armon motivlari yaqqol namoyon bo'ladi. Ularning har bir asarida muayyan g'oya, hissiyot, ruhiy kechinma mavjud. Aynan shu nuqtai nazardan tahlil qilish o'quvchiga musika orqali hayotni anglash imkonini beradi.

Kompozitorlarning asarlarini nafaqat tinglash, balki ularni konseptual tahlil qilish, musiqiy obrazlar ortidagi falsafani ochib berish ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Bu orqali o'quvchi musiqani intellektual darajada qabul qiladi, uni his qiladi, fikr qiladi va baholaydi[9].

Falsafiy qarashlar orqali musika tinglash madaniyatini shakllantirish

Bugungi kunda musiqani iste'mol qilish madaniyati haqida ko'p gapirilmoqda, ammo uni tinglash madaniyati ham birdek muhimdir. Falsafiy qarashlar orqali bu madaniyatni shakllantirish esa ta'limning asosiy vazifasidir.

Aristotel "musiqaxloqiy tarbiyaning asosiy vositasidir" degan. Demak, musiqani tinglash – bu axloqiy-estetik tajriba olish degani. O'quvchiga musiqani fon sifatida emas, balki tafakkur bilan tinglash, uning mazmunini anglash, ichki ovozi eshitish qobiliyatini shakllantirish zarur[10].

Bu borada Pifagorning "Kosmos musiqasi" g'oyasi, Forobiyning musiqaxloqiy va ruhiyat o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi qarashlari o'quvchilar ongiga singdirilishi lozim. Tinglayotgan asarning qanday ruhiy holatga olib borishi, qanday go'zallik yoki hayrat uyg'otishi haqida suhbatlar, tahlillar o'tkazilishi kerak[11].

Shu tariqa, musiqani falsafiy-axloqiy nuqtai nazardan tinglash o'quvchilarda ruhiy yuksaklik, fikrlash, baholash, his qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Estetik baholash, his qilish va mushohada qilishga o'rgatish

Estetik his qilish – bu tug'ma emas, o'rgatiladigan fazilat. Musiqaxloqiy darslarida estetik idrok, baholash, his qilish va mushohada qilishni shakllantirish orqali o'quvchi ongida go'zallik mezonlari qaror topadi.

Har bir kuy va asarda estetik elementlar mavjud – ohanglarning uyg'unligi, ritmik barqarorlik, dinamik kuchayish, musiqiy kontrastlar. Ushbu jihatlarni o'rgatish orqali o'quvchi estetik tafakkurga ega bo'ladi. Bundan tashqari, musiqaxloqiy orqali insoniy his-tuyg'ular – muhabbat, sadoqat, hayrat, armon, baxt kabi tushunchalar chuqur anglanadi.

Estetik mushohada – bu musiqaxloqiy ustida o'ylash, unga baho berish, his qilganlarini so'zga aylantirish demakdir. Har bir darsda "sizda bu kuy qanday hissiyot uyg'otdi?", "bu kuyda qanday fikrlar yashiringan?" kabi savollar o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi.

Estetik didni shakllantirish – bu yosh avlodni yuksak ruhiy madaniyat egasi qilib tarbiyalashdir. Go'zallikni ko'ra olish, his qilish va qadrlash – milliy ma'naviyatning poydevoridir[12].

Shu orqali yoshlar nafaqat musiqani tinglaydi, balki uni anglaydi, hissiy-estetik baho beradi. Bu esa ularning ongida go'zallikni qabul qilish va uni yaratishga intilish sifatlarini rivojlantiradi.

Xulosa

Musiqaxloqiy va falsafa uyg'unligi insoniyat tafakkurining teran qatlamlarini o'rganish, anglash va estetik jihatdan boyitishning muhim omilidir. Uyg'unlik orqali yoshlar ongida go'zallikni kashf qilish, ularni estetik did va axloqiy ong bilan tarbiyalash masalalari falsafiy va madaniy kontekstda tahlil qilindi.

Qadimgi yunon faylasuflari – Pifagor, Aristotel va Forobiy kabi mutafakkirlar musiqani inson ruhiyatiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan, axloqiy va aqlan yetuklikni shakllantiradigan kuch sifatida baholaganlar. Bu g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa,

yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllantirishda musiqiy estetik tarbiya va falsafiy qarashlar uyg'unligining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Musiqaaning ritmik, melodik va ohangdorlik jihatlari bilan falsafaning tafakkuriy-analitik mohiyati qanday uzviy bog'lanishi, ularning sintezida qanday axloqiy va estetik qadriyatlar shakllanishi mumkinligi ko'rsatildi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida ushbu yondashuvlardan samarali foydalanish, yoshlarning ichki dunyosini boyitish, ularni badiiy-falsafiy fikrlashga yo'naltirish zarurligi asoslandi.

Xulosa qilib aytganda, musiqiy va falsafiy uyg'unlik nafaqat nazariy masala, balki amaliy-estetik tarbiyaning asosiy negizidir. U yoshlar ongida go'zallikni, to'g'rilikni, haqiqatni anglash tuyg'usini uyg'otadi. Shu jihatdan maqola yoshlarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda, ularni madaniyat va ma'naviyat sohasida faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida shakllantirishda ilmiy-amaliy asos bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — T.: O'zbekiston, 2021.
3. 2.Mirziyoev SH. M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent: "O'zbekiston". 2016.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T.: Ma'naviyat, 2008.
- 4.(Pifagor g'oyalariga qarang: Guthrie, W. K. C. "Pythagoras and the Pythagoreans", Cambridge University Press, 1988)
5. (Aristotle, "Politics", Book VIII)
6. (Forobiy, "Kitob al-musiqal-kabir", tarjima va tahlil: N. al-Farisi, Cairo, 1967)
- 7.Mirhaydarova Z. Jaxon halqlari musiqal san'atining rivojlaish jarayonlari.-T.:2009.
- 8.Nazarov A. Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida (Mumtoz iqo nazariyasi).-T.:2009.
- 9.Yunusov R.O'zbek xalq musiqal ijodi. O'quv qo'llanma.-T.,2000.
- 10.Ibrohimova O.Maqqom va makon.-T.:Meros,1996.
11. Ibrohimova O. O'zbek xalq musiqal ijodi:Metodik tavsiyalal.-T.:O'qituvchi.1994.
- 12.Fitrat A.O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi.-T.:fan.1993.
- 13.Музыкальная культура древнего мира: Сб.ст./Под ред. К.ИюГрубера.-Л.:Музгиз.1937.
- 14.G'afurov A. Falsafa asoslari. — T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019.
- 15.Ismoilov B. Estetik tarbiya asoslari. — T.: TDPU nashriyoti, 2020.
- 16.Allayev S. O'zbek musiqal madaniyati. — T.: Fan, 2015.